

ERTAK ATAMASINING PAYDO BO'LISHI TARIXI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Azatova Sevinchoy Jur'atbek qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti 2-kurs talabasi

Annatsiya. Mazkur maqolada ertak janrining kelib chiqishi, shakllanishi va turli hududlarda qanday nom bilan atalganligi haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga ertaklar har bir xalqning tarixini, ma'naviy- madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini imon-e'tiqodini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o'rganishda muhim manba vazifasini o'taydi.

Kalit so'zlar : Ertak, janr, xususiyat, matal, hikoya, do'mbira, termin, tarix.

Аннотация. В данной статье рассматривается зарождение, становление и название жанра сказки в разных регионах. В то же время сказки служат важным источником для изучения истории, духовного и культурного быта, внутреннего мира, верований, климата и природных условий места проживания каждого народа.

Ключевые слова: Сказка, жанр, особенность, материал, рассказ, барабан, термин, история.

Annotation. This article discusses the origin, formation and name of the fairy tale genre in different regions. At the same time, fairy tales serve as an important source for studying the history, spiritual and cultural lifestyle, inner world, beliefs, climate and natural conditions of the place of residence of each nationl.

Key words: Tale, genre, feature, material, story, drum, term, history.

Ertak - xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va ommabop janrlaridan biridir. U insoniyat tarixining ilk davrlarida odamlar hali yozuvni bilmagan paytlarda paydo bo'lgan. Ertaklar og'zaki ravishda avloddan - avlodga o'tib, vaqt o'tishi bilan yanada sayqallanib mukammal shaklga kelgan. Ertaklarni nafaqat bolalar, kattalar ham qiziqib eshitishadi. Ularga axloqiy qadriyatlarni o'rgatadi, tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Ertaklar insoniyat tarixining eng qadimgi hikoya janrining biri hisoblanadi.

Ertak terminining shakllanishida turli davrlarda turlicha qarashlar bo'lib ular quyidagilar. Ertak janri Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'otit turk asarida „etuk“ so'zi asarda biror bir maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish ma'nosida qo'llaniladi“. [1. 65] Olim bu so'zni aslida biror narsani hikoya qilishdan olingan deb aytib o'tgan. O'zbeklar qadimgi paytlarda voqealarni tafsiloti bilan aytishni ertak deb ataganlar. Biroq jonli so'zlashuvda O'zbekistonning turli joylarida, chunonchi Namangan viloyatida „ertangi“ deb yuritiladigan bu hodisa ertangi bo'lib o'tgan qadimgi

zamonlardan qilinaajak hikoya ma'nosini anglatadi. Ertaklar yurtimizda shu qadar ko'p va xilma - xil mavzularda tarqalganki, ayrim hududlarda ularni turlicha ataganlar. Masalan Samarqandda matal, Xorazmda varsaki, Buxoroda ushuk, Toshkentda cho'pchak va boshqa hududlarda cho'rchak, shuk deb ham yuritilgan. „Ertak“ so'zi „er“ aslida „ir“ (yir, jir) so'ziga o'xshatishni bildiruvchi „tak“ qo'shimchasining qo'shilishidan tartib topgan bo'lib qo'shiqqa o'xshash degan ma'noni bildiradi. Negaki ertaklarning sajli boshlanmasi qo'shiqqa o'xshash bo'ladi. Shuningdek, ba'zi ertaklar tarkibida she'riy qismlar ham uchrab turadi. Bu o'rinda „Musicha“, „Yoriltosh“ ertaklarini eslash kifoya, lekin ertaklarda she'riy parchalar uchrashi odatiy hol emas, shu sababli ertak xalq nasri namunasi hisoblanadi. „Ir yo yir“ Alisher Navoiy zamonida ham og'zaki hikoya yoki doston ma'nolarini anglatganki, bu xususta u shunday ma'lumotni yozib qoldiradi.

Ey yirov, sen ham ishingni ko'guz
Yotug'on birla ulug' irni tuz. [4. 200]

Navoiy tilga olayotgan „ulug' ir“ aslida doston bo'lib, uni yotug'on (hozir do'mbira) jo'rligida yirov ijro etgan. Yirov yoki jirov hozir ham xalq an'anaviy dostonlar ijrosini anglatadi. Navoiy ta'rifidagi „ulug' ir“ ning doston ekanligini dalillaydi. Navoiy zamonida „Ir“ dostonni anglatgani bois, u ertak ma'nosida „cho'rchak“ istilohini qo'llaydi, va og'zaki eposga xos bu ikki hodisani farqlaydi. Shuni ta'kidlash joizki, Navoiy qo'llagan „cho'rchak“ istilohi hozir paytada Toshkent muzofotida „Cho'pchak“ va uyg'urlarda „Cho'chek“ shakllaridan fonetik o'zgarishga uchragan holda hozirgi kunda ham qo'llanilib kelmoqda. Ertak ijrochiligidan o'ziga xos tabu-taqiq va irimlari bor. Bir guruh folklorshunos olimlarning fikriga tayanadigan bo'lsak, B.Karimov, H. Zarifov, M. Afzalov, M. Alaviya, Z. Husainovalar, og'zaki ijod asarlarini ijro etishda ijrochilar qat'iy odatlarga amal qilganlarliklarini aytib o'tganlar. Chunonchi, ertakchi ertak aytayotganda eshikni mahkam tambalagan bn, o'choqqa olov yoqqan yoniga achchiq va keskir narsalarni shuningdek, non, suv, tosh, isiriq, taroq, supurgi, kabi narsalarni qo'yib chiqqanlar. Ijro davomida esa ulardan ko'rgazmali ashyo sifatida foydalanganlar va ertak ta'sir kuchini oshirishga uringanlar. Shuningdek Abu Rahyon Beruniy o'zining „Hindiston“ asarida „Ko'r bilan Shol“ ertagini keltirganligini, asar do'stlik tufayli o'lim halokatidan qutulganlar haqidaligini M. Afzalov ta'kidlab o'tadi. [2. 9] Demak ushbu asarda ham o'zbek ertak va afsonalariga o'xshash asarlar talaygina keltirilgan deyishimiz mumkin. Ertaklar mavzusiga, til vositasidan foydalanish usuliga voqealar tizimiga ko'ra 3 ta turga bo'linadi.

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar
2. Sehrli - fantastik ertaklar
3. Hayotiy-maishiy ertaklar

Hayvonlar haqidagi ertaklar. Bu tipdagi ertaklarning yaratilishida ibtidoiy insonlarning qadimgi totemistik qarashlari asos bo'lgan. Qadim zamonlarda

ajdodlarimiz ot, tuya, bo'ri, tulki, ilon, qaldirg'och kabi hayvonlarni o'zlariga homiy deb bilganliklari tufayli bu hayvon va qushlar avval miflarda keyin afsona rivoyatlarda qahramon sifatida ishtirok etganlar. Keyinchalik bu an'ana ertaklarga ham meros bo'lib o'tgan. O'zbek xalq ertaklari haqida maxsus o'rganish ishlarini olib borgan Mansur Afzalov „Ilon og'a“ ertagini alohida ajratib ko'rsatadi. „Ilon-kuyov niqobini olsa insonga aylanadi. Qiz ilonning niqobini kuydirib yuborsa u kaptar bo'lib uchib ketadi. Ilon og'aning onasi va xolasi yalmog'iz kampir bo'ladi. Ular ilon og'a bilan qizga ko'p to'squinliklar qiladilar. Lekin ilon og'a va qiz o'z tadbirlari orqali yalmog'iz kampirni yengib, murod-maqсадlariga yetadilar“. [2.25]. Bu misol orqali ilonning yovvoyi hayvon sifatidagi belgisini emas, balki totem tushunchasi ta'siridagi insonga homiylik qilish xususiyati yetakchilik qiladi. Ma'lum bo'ladiki, qadim zamonlarda totem hayvon sifatida e'zozlanuvchi jonivorlar ishtirok etgan, ertaklar bu janrga mansub qadimiy asar sifatida baholanadi.

Sehrli - fantastik ertaklar. Jahon xalqlari ertaklaridagi umumiy o'xshashlik haqida fikr borganida, ko'proq sehrli ertaklar nazarda tutiladi. Inson qadim zamonlarda ham xayol surgan, o'zicha turli-tuman g'aroyib voqealarni o'ylab topgan. Aslida, miflarning vujudga kelishida ham ajdodlarimizdagi aynan ana shu xususiyat yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik fantastik voqyealar totem, fetish obrazlardan uchar gilamlarga, sehrli dasturxonlarga, oltin qaynaydigan xumlarga, istagan odamni istagan paytda ko'rish mumkin bo'lgan jomlarga, oynalarga o'tgan. Bunday voqyealarni o'ylab topish ajdodlarimiz orzulari, havaslari bilan asoslangan. Yo'l azobidan aziyat chekkan inson uchar gilam, ot, manzilga ko'z ochishda yetkazgan bo'rini o'ylab topgan. Oziq-ovqat topishga qiynalgan odam esa ochil dasturxonning ijodkoriga aylangan. Natijada, sehrli ertaklardagi voqea-hodisalar haqiqiy ma'noda ajdodlarimiz orzu-havaslarining majmuasiga aylangan. Chunonchi Hamid Olimjonning „Oygul bilan Bahtiyor“ dostoning boshlanishida aytgan: „o'zi uchar gilamlar“, „o't bog'langan qanotlar“, „beqanot uchganotlar“, „qizil bo'lib ochilgan gul“, „so'ylaguvchi devorlar“, „bola bo'p qolgan chollar“ kabi misralar aynan sehrli ertaklar ta'rifiga to'g'ri keladi. [3. 68]

Hayotiy - maishiy ertaklar. Maishiy ertaklar mazmun jihatdan hayvonlar, sehrli ertaklardan bevosita hayotiy voqyea-hodisalar haqida hikoya qilishi bilan farqlanadi. To'g'ri, bu turdagi ertaklarda sehrli-fantastik belgilarning mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo umumiy ifoda chegarasi maishiy ertaklarda ancha cheklangan. Chunki ularda xalq, avvalo, oddiy odamlar qo'lidan keladigan ishlar yuzasidan fikr yuritadi. Bevosita real hayot, turmushda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqyealar asos qilib olingani uchun ham bunday asarlar turkumiga maishiy ertaklar atamasi berilgan. Masalan, Uch og'a-ini botirlar ertagidagi Kenja botir saroy g'iybati oqibatida nohaq jazolanadi. Ammo uning sabr, sadoqat bilan qilgan harakatlari o'zining ijobiy natijasini beradi. Ozodachehra ertagida Ozoda-chehra ne-ne malomatlariga qolmadi. Unga yovuz

kuch ne-ne tuhmat toshlarini ormadi. Ammo uning chidam bilan adolatsizlikka dosh berishi oxiri yaxshilikka olib keldi. Qizig'i shundaki, maishiy ertaklarda tasvirlangan hodisalar har bir inson hayotida ro'y berishi mumkinligi bilan e'ti-borni o'ziga tortadi.

Demak hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega og'zaki hikoyalar ertak deyiladi. Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, e'tiqodida kechgan o'sish-o'zgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayricha ahamiyat kasb etgan. Shu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib o'qiladi, eng muhimi, navqiron avlodning ma'naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: 1999.
2. M. I. Afzalov. O'zbek xalq ertaklari. - T.: 1964.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. -Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - T.: „Musiq“ nashriyoti, 2010.